

**MAVZU: VIRUSLI GEPATIT KASALLIGI**

**Xo'jiyeva Xayitxon Tolipovna**


*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi  
Yuqumli kasalliklar fani o'qituvchisi*

**Virusli gepatit** – o'tkir yuqumli kasallik; jigar hujayralarining zararlanishi, umumiy intoksikatsiya belgilari, teri va shilliq qavatlarning sarg'ayishi, peshobning to'q sariq yoki „pivo“ga o'xshash, najasning oqimtir tusga (gilvata rangiga) kirishi, jigar, ba'zan taloqning ham kattalashishi bilan ifodalanadi. Virusli gepatit deganda bir-biriga o'xshash olti xil gepatit tushuniladi, bular A, V, S, D, Ye, G viruslari qo'zg'atadigan kasalliklardir. Ular yuqishiga qarab og'iz orqali (A, Ye) va parenteral yo'l bilan yuqadigan (B, S, D, G) xillarga ajratiladi. A va Ye virusli gepatitlarda viruslar bemorning axlati orqali tashqariga chiqadi. Shuning uchun axlat, suv, oziq-ovqat mahsulotlari, bemor foydalangan buyum va narsalardan ifloslanish juda xavfli hisoblanadi.

**Gepatit B** –yuqumli jigar kasalligi. Bu kasallik o'tkir yoki surunkali bo'ladi.

### Sabablari

Kasallik asosan qon orqali yuqadigan gepatit B virusi bilan tanaga zarar yetkazish natijasida yuzaga keladi. Gepatit B sabablari:



## ***Virusli hepatit haqida***

- himoyalagan jinsiy aloqa, jinsiy sherikning tez-tez o'zgarishi;
- inyekzion giyohvand moddalarni iste'mol qilish, tatuirovka salonlari xizmatlaridan foydalanish (iflos igna orqali yuqtirish);
- qon quyish, tibbiy muassasalarda operatsiyalar paytida infektsiya yuqishi;
- infektsiyalangan odamning shaxsiy gigiena vositalaridan foydalanish;
- tug'ruq paytida onadan homilaga virus yuqishi.

### **Gepatit B belgilari**

Kasallikning dastlabki belgilari odatda infektsiyalanishdan 12 hafta o'tgach paydo bo'ladi. Gepatit B uchun xarakterli alomatlar quyidagicha:

## **Virusli hepatitlar epidemiologiyasi va profilaktikasi**

- tez charchoq, doimiy charchoq hissi;
- ko'ngil aynishi, quşish;
- qovurg'a osti o'ng tomonda vaqtı-vaqtı bilan og'riq;
- siydikning qorayishi;
- tana haroratining ko'tarilishi;
- ko'z oqlari, terining sarg'ayishi;
- axlat rangsizlanishi.

Agar sizda ham shunga o`xshash belgilar borligini aniqlasangiz, darhol shifokorga murojaat qiling. Kasallikning oqibatlarini bartaraf etishdan ko`ra oldini olish osonroq.

### **Diagnostika**

Gepatit B diagnostikasi hepatolog tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun u bir qator tahlillar va tadqiqotlarni tayinlaydi:



- umumiyo ko'rik;
- umumiyo, biokimyoviy qon testlari;
- qorin bo'shlig'i organlarining ultratovush tekshiruvi;
- PCR diagnostikasi;
- siydiki tahlili;
- jigar testlari.

Har qanday zamonaviy hepatologiya markazida to'liq tashxis qo'yish mumkin.

### **Gepatit B ni davolash**

Gepatit B ni davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- virusga qarshi preparatlar;
- hepatoprotektorlar;
- immunomodulyatsion vositalar.

Hozirgi vaqtida gepatit B ni to'liq davolash mumkin, tuzalgandan so'ng, bemor virusga qarshi umrbod immunitetga ega bo'ladi.

### **Gepatit B qayerda davolanadi?**

Birinchi alomatlar paydo bo'lganda, kasallikni o'tkazib yubormaslik uchun shifokor ko`rigidan o'tish kerak.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. R.E Giyasova, D.X Dadamuhamedova "Yuqumli kasalliklar va infektion nazorat" Turon nashriyoti 2022 yil.

2. R.E.Giyasova, S.A.Mirzaeva "Sestrinskiy uxod zapatsientami s infeksiyonnymi zabolevaniyami" Tashkent, "Ilm Ziyo", 2015 g.
3. A.Gadayev, M.F Ziyayeva va R.To`rakulova "Terapiya" "Yosh avlod matbaa" 2022 yil.
4. S.R Hakimho`jayeva, D.A Nabiyeva "Tibbiyat kasbiga kirish" "Yosh avlod matbaa" 2022 yil.
5. Ye.I.Musaboev, A.Q.Bayjanov "Yuqumli kasalliklar,epidemiologiya va parazitologiya". Toshkent,"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 yil.
6. A.G.Raxmanova, V.K. Prigojina «Infeksiyonnye bolezni». Sankt- Peterburg, izdatelstvo Piter, 2001 yil.